

## MEHNAT BOZORI VA ISHSIZLIKNI KAMAYTISH STRATTEGIYALARI

### РЫНОК ТРУДА И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ БЕЗРАБОТИЦЫ

#### LABOR MARKET AND UNEMPLOYMENT REDUCTION STRATEGIES

Toshmurodov Og'abek Qudrat o'g'li

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali**  
**Iqtisodiyot(tamoqlar va sohalar) yo'nalishi 3-bosqich talabasi**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14249213>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mehnat bozorining qisqacha tavsifi, O'zbekistonda mehnat bozorining shakllanishi va mehnat bozorining ijtimoiy-huquqiy munosabatlari keltirib o'tilgan. Shu bilan birga, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tahlili, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash va ularni jamoat ishlariga jalb qilish haqida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mehnat bozori, ishsizlik, ish haqi, ishchi, ish beruvchi.

**Аннотация:** В данной статье представлена краткая характеристика рынка труда, формирование рынка труда в Узбекистане и социально-правовые отношения рынка труда. При этом был проведен анализ мер, направленных на снижение уровня безработицы в стране, даны рекомендации по социальной защите безработных и привлечению их к общественным работам.

**Ключевые слова:** рынок труда, безработица, заработная плата, работник, работодатель.

**Annotation:** this article presents a brief description of the labor market, the formation of the labor market in Uzbekistan and the socio-legal relations of the labor market. At the same time, an analysis of measures aimed at reducing the unemployment rate in the country, recommendations were made on the social protection of the unemployed and their involvement in public affairs.

**Keywords:** labor market, unemployment, salary, worker, employer.

#### KIRISH

Ishchi kuchi oldi-sotdisi amalga oshiriladigan bozor - mehnat bozori deb ataladi. Bu bozorda sotuvchilar – ishga yollanuvchilar, xaridorlar esa ish beruvchilar hisoblanishadi. Ish kuchi maxsus tovar sifatida uning sohibi tomonidan bozorga taklif etiladi. Ishga yollovchilar mehnat bozoriga talab bilan chiqadi. Mehnat bozorida oldi-sotdi jarayoni ishga yollanuvchi bilan ish beruvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachilar ishtirokida amalga oshishi mumkin. Bu ishni mehnat birjasi yoki ish topib beruvchi firmalar bajaradi. Mehnat bozorida ishchi va ish beruvchi o'rtasida mehnatning kelishilgan narxi – ish haqi to'lanadi.

Mehnati bozoridagi ijtimoiy-mehnati munosabatlarning asosiy mazmunini ishsizlik va u bilan bog'liq muammolar tashkil qiladi. Mamlakatda ishsizlik muammosini o'rganishdan maqsad aholini ish bilan bandligini ta'minlash orqali ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish. Jamiyatda ishsizlikni pasaytirish uchun aholining tabiiy o'sishini hisobga olgan holda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish lozim. Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik – mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta'minlanmaganligi va buning natijasida shu toifadagi aholining daromad manbaiga ega

bo'lmaganligining aniq holati tushuniladi. Bundan kelib chiqadiki, mamlakatdagi ishsizlikni kamaytirish kambag'allikni qisqartirish yo'llaridan biridir.

### **METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI**

O'zbekistonlik olimlar L. P. Maksakova, D. A. Ortiqova, Z. Y. Xudoyberdiev, K. Z. Xomitovlarning fikricha, ish bilan bandlikni mehnat faoliyatidan ajratish mumkin emas, chunki bu holda u o'z ma'nosini yo'qotadi. Bizningcha, mehnat bozori orqali yollanma xodim uchun mehnat qilish mumkin bo'lgan ish joyini egallash imkoniyati yaratiladi, ish beruvchi esa foyda olish uchun zarur tovarlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, mehnat bozori yordamida aholining ish bilan bandligini ta'minlash shart-sharoitlari yaratiladi. Mehnat bozorini tartibga solish yo'nalishlaridan biri esa aynan shu shart-sharoitlarni yaratishdir.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari R. A. Ubaydullaeva, Q. X. Abdurahmonov, N. Q. Zokirova, B. X. Umurzakov, N. X. Rahimova va V. A. Imomovlarning e'tiroficha: «Mehnat bozori - ishga qobiliyatli aholining faol (ish bilan band va mehnatga muhtoj aholi) qismi bilan ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi, «mehnat qobiliyati»ni sotish-sotib olishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita barqarorlashtiruvchi ko'p omilli, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimidir».

Aholining ish bilan bandligi tarkibiga, mehnat bozoridan tashqari aholini o'zini-o'zi band qilishi, kadrlarni tayyorlash va ishga joylashtirishning maqsadli dasturlari ham kiradi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq, belgilangan yoshga yetgan (16 yosh) hamda ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yollanma xodimlar sifatida mehnatga oid munosabatlarning subyektlari bo'lishi mumkin. Korxonalaridagi kasaba uyushmalari va ularning saylab qo'yiladigan organlari yoki xodimlar tomonidan saylanadigan boshqa organlar xodimlar manfaatlarini ifoda etishi va himoya qilishi huquqiga ega.

Quyidagilar ish beruvchi bo'la oladilar:

- 1) korxonalar, shu jumladan, ularning alohida tarkibiy bo'linmalari o'z rahbarlari timsolida;
- 2) mulkdoming o'zi ayni bir vaqtda rahbar bo'lgan xususiy korxonalar;
- 3) o'n sakkiz yoshga to'lgan ayrim shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlar yollaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Ish beruvchilar jamoat birlashmalariga birlashishga haqlidirlar.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida jamoat ishlariga jalb qilish chora-tadbirlari olib borilayapti, jamoat ishlari turlariga quyidagilar kiradi:

- shahar, tuman, aholi punktlari, mahallalar va boshqa hududlarni obodonlashtirish (ko'kalamzorlashtirish, tozalash, oqlash, madaniy obyektlar, ziyoratgohlar, qabristonlar va ariqlarni tozalash kabilar);
- uy-joy kommunal va boshqa infratuzilma obyektlarini ta'mirlash; - ko'chalar, yo'llar va piyodalar yurish yo'laklarini ta'mirlash;
- mavsumiy qishloq xo'jalik ishlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va qayta ishlash;
- nogironlar, keksalar, bemorlar va boshqalarni parvarishlash; - sanoat tarmoqlari va xizmatlar ko'rsatish sohasi tashkilotlaridagi ishlar;

- obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari.

Jamoat ishlarini bajarayotgan fuqarolarga korxonalarda amalda bo'lgan stavkalar va lavozim maoshlari (ishbay narxlar)dan kelib chiqqan holda, ammo ish haqi to'lash bo'yicha Yagona tarif setkasining birinchi razryadidan kam bo'lmagan miqdorda ish haqi to'lanadi. Jamoat ishlarida ish haqidan tashqari mehnat uchun qo'shimcha mukofotlar miqdori ish beruvchilar mablag'lari hisobidan belgilanishi mumkin.

### **XULOSA**

Mehnat bozori va ishsizlikni kamaytirish strategiyalari xususida xulosa shuni ko'rsatadiki, ishsizlikni pasaytirish va mehnat bozorini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, iqtisodiyotning turli sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish muhim. Bu jarayonda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ishchi kuchining malakasini oshirishga yo'naltirilgan dasturlar tashkil qilish, professional tayyorgarlik va qayta o'qitish jarayonlarini amalga oshirish orqali mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta'minlash zarur. Shuningdek, mehnat qonunchiligini takomillashtirish, xodimlarning huquqlarini himoya qilish va ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash iqtisodiy faollikni oshiradi. Ishsizlikni kamaytirishda davlatning ijtimoiy siyosati, jumladan, nafaqa tizimlari va vaqtinchalik bandlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari ham muhim rol o'ynaydi. Shu asosda, mehnat bozori barqarorligini ta'minlash va ishsizlikni pasaytirish uchun innovatsion, ijtimoiy va iqtisodiy choralarni birlashtirgan uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

### **References:**

1. Abdurahmonov Q. X Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Mehnat, 2009.
2. Abdurahmonov Q. X., Haitov A. A. Mehnat bozori va aholini ish bilan ta'minlash muammolari. - T.: RIA TF, 2010.
3. Shakarov Z. G. Milliy iqtisodiyotda mehnat resurslarining harakatchanligi. Monografiya. - T.: Iqtisodiyot, 2014
4. Abdurakhm anov K . Human resource marketing. Published by U niversitas-Gyor Nonprofit Ltd.. (Hungary, Vengriya) 2018.